

Moliya tizimi tushunchasi va uning nazariy asoslari

To'rayev B.E.

Termiz davlat Universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasi mudiri

Eshbayeva Sh.F.

Termiz Davlat Universiteti magistranti.

Annotatsiya: Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatning rivojlanishi har tomonlama iqtisodiy islohotlar hamda mamlakatning moliya tizimiga bevosita bog'liq bo'ladi. Milliy iqtisodiyotning tarkibiy qismlarida faoliyat yuritayotgan iqtisodiy sub'ektlarning daromadlari va xarajatlari o'rtasida o'zaro tenglikga erishish uchun moliya tizimiga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Ushbu maqolada moliya va moliya tizimining dastlabki rivojlanish bosqichlari hamda hududlarning "moliyaviy salohiyat" tushunchasi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Moliya, moliya tizimi, moliyaviy bozorlar, moliyaviy aktivlar, moliya institutlari, moliya komponentlari, moliya xizmatlari, salohiyat, moliyaviy salohiyat.

Annotation: In the conditions of modern market economy, the development of the country directly depends on all-round economic reforms and the country's financial system. Special attention should be paid to the financial system in order to achieve mutual equality between the incomes and expenses of economic entities operating in the components of the national economy. This article analyzes the initial stages of development of finance and the financial system, as well as the concept of "financial potential" of regions.

Key words: Finance, financial system, financial markets, financial assets, financial institutions, financial components, financial services, potential, financial potential.

Аннотация: В условиях современной рыночной экономики развитие страны напрямую зависит от всесторонних экономических реформ и финансовой системы страны. Особое внимание следует уделить финансовой системе в целях достижения взаимного равенства доходов и расходов хозяйствующих субъектов, действующих в компонентах национальной экономики. В данной статье анализируются начальные этапы развития финансов и финансовой системы, а также понятие «финансовый потенциал» регионов.

Ключевые слова: Финансы, финансовая система, финансовые рынки, финансовые активы, финансовые институты, финансовые компоненты, финансовые услуги, потенциал, финансовый потенциал.

Milliy iqtisodiyotdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bir zaylda davom etishi hamda makroiqtisodiy barqarorlikga erishish uchun moliya tizimiga alohida e'tibor qaratishimiz zarur. Bugungi kunda moliya tizimi iqtisodiy jarayonlarning jadal sur'atlarda o'sishini ta'minlab beruvchi dastak vazifasini bajarib kelmoqda. „Moliya tizimi“ tushunchasini to'liq anglab yetishimiz uchun birinchi navbatda „moliya“ nima ekanligini anglashimiz kerak. Moliya dastlab XIII-XV-asrlarda Italiyada paydo bo'lgan bo'lib, pul bilan bog'liq bo'lgan barcha to'lovlarni anglatadi. O'zining lug'aviy ma'nosi jihatidan „moliya“ so'zi frantsuzcha „finance“, lotincha „financia“ va ruscha „finansi“ so'zlarining ekvivalenti yoki ma'lum ma'noda, sinonimi hisoblanib, „daromad“ yoki „to'lov“ degan ma'nolarni ham anglatadi. Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish uchun sharoitlarni ta'minlash hamda davlatning funksiyalari va vazifalarini bajarish maqsadida markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul mablag'lari fondlarini shakllantirish, taqsimlash va foydalanish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlarga moliya deyiladi.¹ Moliya takror ishlab chiqarish jarayonida markazlashgan va markazlashmagan pul mablag'arinining harakatini nazorat qiladi. Milliy daromadning yaratilishi, uning taqsimlanishi va undan foydalanish jarayonlarida moliya muhim tarkibiy qismni egallaydi.

Hozirgi kunda iqtisodiyotga „moliya“ atamasini dastlab kiritgan iqtisodchi olimlarni aniqlash juda keng muhomalarga sabab bo'lmoqda. Bu haqida turli adabiyotlarda turlicha fikrlar keltirib o'tilgan. Quyidagi 1.1- jadvalda „moliya“ atamasi dastlab qaysi adabiyotlarda keltirib o'tilganini ko'rishimiz mumkin. Umumiy qilib aytadigan bo'lsak, moliya - bir davlatning moliya turlari va resurslaridan samarali foydalanish, moliyaviy faoliyatni tartibga solish va moliyaviy muammolarni hal etish uchun qo'llanadigan to'g'ri tartib va qonunlar birligi hisoblanadi. Moliya, pul, tovar, xizmatlar, asbob-uskunalar, to'lovlar, soliq va boshqa moliyaviy resurslarni o'z ichiga oladi.

1.1-jadval


„Moliya“ atamasining iqtisodiy adabiyotlarga kirib kelishi²

¹ Moliya: chizmalarda. O'quv qo'llanma / Malikov T.S., Vahobov D.R. O'zR. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent moliya instituti. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2012. – 660 bet.

² O'rganilgan ma'lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

1.	J.Boden	1577-yil, „Respublika xususida olti kitob”
3.	I.Yusti	1746-yil, „Moliya mohiyatining tizimi”
4.	V.Petti	„Soliqlar va yig’imlar xususida traktlar”
5.	L.Koss	1869-yil „Moliya fani asoslari”
5.	P.Le-rua-Boleni	1877-yil moliya fani kursini yaratgan
6.	K.Bastbl	1892-yil „davlat moliyasi”
7.	K.Rau	1867-yil „Moliya fanining asosiy boshlanishi”
8.	V.Lebedov	1882-1885-yillar „Moliyaviy huquq”

Pul aylanmalari va boshqa muhim iqtisodiy jarayonlarda moliya ma’lum bir funksiyalarni bajaradi va o’zining mohiyatini namoyon qiladi. Moliya asosan taqsimlash va nazorat qilish funksiyalarni bajaradi. Bu borada ham bahsli holatlar mavjud.



1.1-rasm. Moliyaning asosiy funksiyalari ³

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan ko’rishimiz mumkinki moliyaning asosiy funksiyalarini turli olimlar turlicha sanab o’tgan. A.M. Birman taqsimlash va nazorat funksiyalarini e’tirof etgan bo’lsa, aksincha A.M. Aleksandrov va E.A. Voznesenskiy taqsimlash funksiyasi haqida to’xtalmagan. Iqtisodchi olim I.T. Balabanov o’zining moliyaviy qarashlarida taqsimlash funksiyasi bozor iqtisodiyotida o’z kuchini yo’qotadi deb ta’kidlaydi. O’zbekistonlik iqtisodchi olimlar Malikov T.S va Vahobov D.R. moliyaning asosiy funksiyalari sifatida xuddi V.M. Rodinova kabi taqsimlash va nazorat funksiyasini bajaradi degan xulosaga kelishgan.

³ O’rganilgan ma’lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

1.2-jadval


Moliyaning asosiy funksiyalari⁴

Moliyaning taqsimlash funksiyasi	
Iqtisodiyotni boshqarishning turli darajalarini (mamlakat, uning alohida olingan mintaqalari va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari miqyosida) qamrab oladi	MD ni birlamchi taqsimlashda vujudga kelgan nisbatlarni ularning yakuniy foydalanish nisbatlariga transformatsiya qilinishiga (aylanishiga, o'zgarishiga) ta'sir ko'rsatadi
Xo'jalik ichida, tarmoq ichida, tarmoqlararo, hududlararo, shuningdek, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari, aholi ijtimoiy guruhlari o'rtasida qayta taqsimlashni sodir etishga va xo'jalik sub'ekti va davlat darajasida zaxiralar yaratishga, fuqarolar tomonidan jamg'arishni amalga oshirishga imkon yaratib beradi	Taqsimlash funksiyasi yordamida davlat faqatgina MD ni qayta taqsimlashga emas, balki ishlab chiqarishga, kapitalning jamg'arilishiga, iste'mol sohasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu ma'noda, moliya iqtisodiyotning davlat va xususiy sektorlarini, ishlab chiqarish va sotsial infrastrukturani, ilmiy-texnika taraqqiyotini va h.k. larni rivojlantirishda hal qiluvchi rolni o'ynaydi
Moliyaning nazorat funksiyasi	
YaIM ni tegishli fondlarga taqsimlash va ularning maqsadga muvofiq sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirish orqali namoyon bo'ladi	Nazorat funksiyasining eng muhim vazifalaridan biri moliyaviy masalalar bo'yicha qonunchilikning aniq bajarilishini, byudjet tizimi, soliq xizmati, banklar oldidagi moliyaviy majburiyatlar, shuningdek, hisob-kitoblar va to'lovlar bo'yicha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning o'zaro majburiyatlari bajarilishining o'z vaqtidaligi va to'liqligini tekshirishdir

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliya va moliyaviy jarayonlar iqtisodiyotning har bir sohasida shuningdek, aholining ijtimoiy-iqtisodiy harakatlarida markazlashgan

⁴ Moliya: chizmalarda. O'quv qo'llanma / Malikov T.S., Vahobov D.R. O'zR. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent moliya instituti. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2012. – 660 bet.

va markazlashmagan pul mablag'larining to'g'ri taqsimlanishi va takror ishlab chiqarish jarayonida ulardan samarali foydalanish uchun muhim ko'rsatma va vazifalarni belgilab bermoqda. Zamonaviy moliya tizimi - banklar (davlat sektori yoki xususiy sektor), moliya bozorlari, moliyaviy vositalar va moliyaviy xizmatlarni o'z ichiga olishi mumkin. Muntazam va oqilona kapital oqimlari iqtisodiyotni jadal rivojlantirish uchun judayam zarur bo'lgan asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Moliya tizimi jismoniy shaxslar (shaxsiy moliya), hukumatlar (davlat moliyasi) va korxonalar (korporativ moliya) o'rtasida sodir bo'ladigan kapital oqimlaridan iborat. Moliya tizimlarida pul, kredit va moliya ayirboshlash vositalari sifatida ishlatiladi. Ular ma'lum qiymatga ega vosita bo'lib xizmat qiladi va ular muqobil ravishda tovar va xizmatlarga ayirboshlanishi mumkin.⁵ Moliya tizimi o'z navbatida rejalashtirish, tashkillashtirish, rag'banlantirish va nazorat funksiyalarini bajaradi.



1.2-rasm. Moliya tizimining komponentlari ⁶

Moliyaviy bozorlar-bu aksiya ,obligatsiya, qimmatli qog'ozlar, xalqaro valyutalar va fond birjalarini o'z ichiga olgan moliyaviy vositalar orqali bozor subektlari o'rtasida savdoni amalga oshiradigan tizimni o'z ichiga oladi.


Moliyaviy aktivlar-bu qiymati talab va taklif omillari hamda risklilik darajasi bilan o'lchanadigan moliyaviy bozorlarda sotiladigan tovar yoki mahsulotlar hisoblanadi.

⁵ Sh.A.Ermatova. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Moliya tizimi va uning ahamiyati.

⁶Sh.A.Ermatova. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Moliya tizimi va uning ahamiyati.

Moliya institutlari- moliyaviy xizmatlar ko'rsatish jarayonida qarz oluvchilar va investorlar o'rtasida murosa olib boradigan va ularga bevosita xizmat ko'rsatadigan vositachilardir.

Moliyaviy xizmatlar- kompaniyalar tomonidan kerakli pul mablag'arini olish hamda iqtisodiy jarayonlarda investitsiyalarni samarali taqsimlash ,shuningdek bank va sug'urta xizmatlarini o'z ichiga oladi.



1.3-rasm. Moliya tizimining tarkibiy qismlari ⁷

Yuqorida keltirilgan 1.3-rasmda ko'rishimiz mumkinki, moliya tizimi bir nechta bo'g'implarni qamrab oladi. Moliya tizimining asosiy tarkibiy qismlari pul mablag'lari, ularning iqtisodiyotdagi doimiy harakatini hamda pul fondlaridan foydalanishning eng optimal usullarini ishlab chiqishda kerakli shart-sharoitlarni

⁷ O'rganilgan ma'lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

yaratib beradi. YAIMni shakllantirish, taqsimlash, qayta taqsimlash va daromadlarni to'g'ri yo'naltirish, ularni iqtisodiy munosabat ishtirokchilari o'rtasida taqsimlab berish moliya tizimini turli tarkibiy qismlarga bo'lish uchun asosiy sabab hisoblanadi.

Zamonaviy moliya tizimida moliyaviy munosbatlar byudjet daromadlari bilan bir qatorda mahalliy byudjet daromadlar bazasini shakllantirish va kengaytirish shuningdek, xududlarning barqaror iqtisodiy o'sishga erishishini ta'minlab berishi kerak. Moliya tizimini rivojlantirish va aholi o'rtasida moliyaviy savodxonlikni oshirish maqsadida bir qancha amaliy ishlar olib borilmoqda. Xususan bu borada ishlab chiqilgan turli xil online saytlar o'zining samarasini bermoqda. Masalan, 2020 -yil 6-avgustda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki moliyaviy savodxonlik bo'yicha „Finlit.uz“ mobil ilovasini foydalanuvchilar uchun taqdim etdi. Yangi O'zbekiston strategiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, hududlarning iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash, shu bilan birga tumanlar, shaharlar va qishloqlarni barqaror rivojlantirishni ko'zlaydi.⁸ Moliya tizimi o'z funktsiya va vazifalarini qanchalik samarali tashkil qilishi uning moliyaviy salohiyat darajasi bilan belgilanadi. Moliyaviy salohiyat haqida turlicha yondashuv va fikrlar mavjud. Moliyaviy salohiyat tushunchasiga iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan ta'riflarni 1.3-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

Salohiyat bu – aniq maqsadga erishish uchun foydalanish mumkin bo'lgan, mavjud vositalar, zahiralalar va resurslar yig'indisidir.⁹ Xududlarning moliyaviy salohiyatini oshirish iqtisodiyotda bir qancha qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi:

- iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini aniq maqsadlar orqali ishlab chiqish;
- moliya boshqaruv organlari uchun moliyaviy resurslarni samarali usullarda taqsimlash;
- yangi investitsion imkoniyatlar ochib berish;
- iqtisodiyotning pasayish fazasida iqtisodiy o'sishga erishish uchun yo'nalishlar berish;
- tarmoqlar va sohalarda mavjud muommolarni aniqlaydi hamda modernizatsiya va diversifikatsiya qilish orqali raqobatbardoshlik darajasini oshirib beradi.

1.3-jadval

⁸ Мирзиёев Ш.М. Янги ўзбекистон стратегияси. Тошкент. "Ўзбекистон" нашриёти. 2021.- 1686

⁹ Брокгауз Ф.А., Ефрон И.А., Энциклопедический словарь. Современная версия М.: Эскимо, 2002. – С.672

„Moliyaviy salohiyat“ tushunchasining iqtisodiy ta’riflari ¹⁰

№	Iqtisodchi olimlar	Ilmiy yondashuvlar
1.	I.Britchenko	“Moliyaviy salohiyat – bu korxonaning o’z hususiy va jalb qilingan moliyaviy resurslari bo’lib, joriy va kelajakdagi harajatlarini tasarruf etishda o’zi haqlidir”
2.	F.Evdokimov va O.Mizina	Moliyaviy salohiyat-moliyaviy tizimning moliyaviy resurslarini samarali taqsimlash imkoniyatlari.
3.	V.Plaksin va A.Poleщuk	“Korxonaning moliyaviy – iqtisodiy salohiyatini uning tashkil etadigan komponentlar summasi sifatida emas, balkim, har qanday ishlab chiqarish tizimida bo’lganiday, murakkab, o’zaro bog’liq salohiyatlar tizimining elementlari yig’indisi sifatida e’tirof etganlar”
4.	L.Suxova	“Korxonalar moliyaviy salohiyati: tushunchasi, mazmuni, o’lchash usullari” nomli nashrida korxonalar moliyaviy salohiyatini “Korxonalar moliyasi” tushunchasi bilan bog’lab, iqtisodiy munosabatar tizimi sifatida korxonalar moliyaviy resurslarini shakllantirish, taqsimlash va ishlatilishi jarayonida paydo bo’lishini ifodalaydi” ²
5.	A.Vahobov, T.Malikov	Moliyaviy salohiyat toifasini davlat darajasida talqin qilish, respublika va mahalliy byudjetlar, davlat byudjetidan tashqari jamg’armalari byudjetlari, davlat kredit resurslari, davlat unitar xususiy tashkilotlari va davlat ishtirokidagi xususiy institutlarning moliyaviy salohiyatini davlat moliyasining tarmoqlari sifatida ajratib ko’rsatganlar
6.	O.Minaeva	“Hududlar moliyaviy salohiyat tushunchasini ishlab chiqarilgan milliy daromad bilan bog’lab, mutlaq va nisbiy ko’rsatkichlar bilan ta’riflaydi”
7.	L.B.Vahobovna	Hududlarning moliyaviy salohiyati – bu ishlab chiqarilgan milliy daromadning bir qismi sifatida, davlat (mahalliy byudjet daromadlari), xo’jalik yurito’vchi sub’ektlar

¹⁰ Л.В.Буранова “Худудларнинг молиявий салоҳиятини баҳолаш орқали маҳаллий бюджет даромадларини мустаҳкамлаш масалалари (сурхондаре вилояти мисолида)” Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (Doctor of Philosophy) илмий даражасини олиш учун ёзилган Д И С С Е Р Т А Ц И Я

		(qayta ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida qatnashadigan), moliya-bank tizimi institutlari (jalb qilingan va o'z mablag'lari) va aholining (real umumiy pul daromadlari) jami moliyaviy resurslarini tashkil etib, hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi maqsadlariga yo'naltirilgan, hozirgi vaqtda yaratilayotgan va oldindan to'plangan moliyaviy resurslari yig'indisidir.
--	--	--

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, moliyaviy salohiyat – bu milliy daromadni taqsimlash, ularni tasarruf etish va ishlab chiqarish jarayoniga yo'naltirish, davlat byudjeti va mahalliy byudjet daromadlar bazasini kengaytirish hamda hududlarning rivojlanish strategiyalarini belgilab beruvchi moliyaviy resurslar yig'indisidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги ўзбекистон стратегияси. Тошкент. "Ўзбекистон" нашриёти. 2021.- 1686
2. Брокгауз Ф.А., Ефрон И.А., Энциклопедический словарь. Современная версия М.: Эскиммо, 2002. – С.672
3. Moliya: chizmalarda. O'quv qo'llanma / Malikov T.S., Vahobov D.R. O'zR. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent moliya instituti. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2012. – 660 bet.
4. Sh.A.Ermatova. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Moliya tizimi va uning ahamiyati.
5. Л.В.Буранова “Худудларнинг молиявий салоҳиятини баҳолаш орқали маҳаллий бюджет даромадларини мустаҳкамлаш масалалари (сурхондаре вилояти мисолида)” Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (Doctor of Philosophy) илмий даражасини олиш учун ёзилган Д И С С Е Р Т А Ц И